

**O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING
ZARURIYATI VA ISTIQBOLLARI**

**АКТУАЛЬНОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ
ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ
THE URGENCY AND PROSPECTS OF DEVELOPING
ENVIRONMENTAL EDUCATION IN UZBEKISTAN**

G.D.Kenjaliyeva - Muxtor Avezov nomidagi Qozog‘iston universiteti dotsenti

D.I.Quvondikova –Jizzax politexnika instituti, Assistant

Г.Д.Кенжалиева – Доцент Казакистанского университета имени Мухтара Ауэзова

Д.И.Кувондикова - Джизакский политехнический институт, Ассистент

G.D.Kenzhalieva - Associate Professor of the Mukhtar Auezov Kazakh University

D.I.Kuvondikova – Assistant Professor of Jizzakh Polytechnic institute

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik ta’limning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va uning barqaror rivojlanish bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Yosh avlodda ekologik ongni shakllantirish, tabiatga mas’uliyatli munosabatni rivojlantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ekologik omillarni hisobga olishning ahamiyati tahlil etiladi. Amaliy tavsiyalar orqali barqaror rivojlanishga erishishda ekologik ta’limning samarali mexanizmlari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: ekologik ta’lim, barqaror rivojlanish, ekologik ong, ekologik madaniyat, ta’lim tizimi.

Аннотация: В статье рассматривается роль экологического образования в современном обществе и его неразрывная связь с устойчивым развитием. Анализируется важность формирования экологического сознания подрастающего поколения, формирования

ответственного отношения к природе и учета экологических факторов в социально-экономическом развитии. С помощью практических рекомендаций показаны эффективные механизмы экологического образования в достижении устойчивого развития.

Ключевые слова: экологическое образование, устойчивое развитие, экологическое сознание, экологическая культура, система образования.

Annotation: This article discusses the role of environmental education in modern society and its inextricable link with sustainable development. The importance of forming environmental awareness in the younger generation, developing a responsible attitude towards nature, and taking into account environmental factors in socio-economic development is analyzed. Through practical recommendations, effective mechanisms of environmental education in achieving sustainable development are shown.

Keywords: environmental education, sustainable development, environmental awareness, environmental culture, education system.

Bugungi globallashuv va sanoatlashtirish davrida inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'siri tobora ortib bormoqda. Atmosfera havosining ifloslanishi, ichimlik suv manbalarining kamayishi, chiqindilar muammosi hamda iqlim o'zgarishi ekologik muammolar sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Bu muammolarning oldini olish va ularni bartaraf etishda ekologik ta'limning ahamiyati beqiyosdir. Chunki barqaror rivojlanishga faqatgina ongli, ekologik mas'uliyatni his qiladigan yoshlar orqali erishish mumkin.

Ekologik ta'limning mazmuni va vazifalari quyidagilardan iborat: Ekologik ta'lim – bu inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni ongli ravishda boshqarishga qaratilgan ta'lim jarayonidir. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'quvchilarda ekologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;
- Atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash;
- Amaliy faoliyatda ekologik mas'uliyatni oshirish;
- Ekologik madaniyatni umumjamiyat darajasiga ko'tarish.

Barqaror rivojlanish – bu jamiyatning iqtisodiy o‘rinishini ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlik bilan uyg‘un holda ta‘minlash demakdir. Bunda ta‘lim tizimi uch asosiy yo‘nalishga e‘tibor qaratishi zarur:

1. Ekologik ong – yoshlarni tabiatni asrashga o‘rgatish;
2. Innovatsion yondashuv – qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni targ‘ib qilish;
3. Amaliy faoliyat – maktab, kollej va oliygohlarda ekologik loyihalar va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash.

Finlyandiya ta‘lim tizimida ekologik loyihalar maktab dasturining asosiy qismiga kiritilgan.

Mamlakatimizda uzluksiz ekologik ta'lim tizimini samarali yo'lga qo'yish orqali aholining, jamiyatning ekologik madaniyatini oshirish mumkin. Gap shundaki, aholining, birinchi navbatda, uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchi va talaba yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirmasdan, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasiga sarflanayotgan har qancha mablag'lar bilan muammolarni bartaraf etib bo'lmaydi. Shunday ekan, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, yosh avlod qalbida Ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini o'z vaqtida tarbiyalashimiz lozim.

Bu borada davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan tegishli chora-tadbirlar belgilab berildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi “O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarorida maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda maktabdan tashqari ta'lim turlarida uzluksiz ekologik ta'lim tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi “2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmonida barcha darajalardagi

ta'lim o'quv dasturlariga ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish masalalarini kiritish orqali uzluksiz ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish, xususan, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlantirish masalalarini ta'limning barcha bosqichidagi o'quv dasturlariga joriy etish, ekologik muammolarni va tabiatdan to'g'ri foydalanish zaruratini yanada chuqur anglab yetishga yordam beruvchi ekologiya bo'yicha yangi umumta'lim va maxsus o'quv rejalari (dasturlari) ni joriy etish va mavjudlarini yaxshilash chora-tadbirlarida aniq vazifalar belgilab berildi.

O'zbekistonda "Yashil makon" umummilliy dasturi doirasida o'quvchi-yoshlarning ekologik tashabbuslarda faol ishtiroki ta'minlanmoqda. Respublikada ekotizimlarni himoya qilish va tiklash, ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va yashil maydonlarni kengaytirish borasida "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirilishi muhim qadam bo'ldi. Ushbu loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 foizdan 30 foizga oshirish reja qilingan. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish, shu orqali shaharlardagi yashil maydonlarni hozirgi 8 foizdan 30 foizga oshirish rejalashtirilgan.

Loyiha doirasida mamlakatimiz shaharlarini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirish, ularning ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga etkazish, shahar va tuman markazlarida har 50-100 ming aholi uchun "jamoat parklari"ni tashkil etish ko'zda tutilgan.

BMTning 2030-yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDGs) ekologik ta'lim muhim yo'nalish sifatida belgilangan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkuni, ekologik ta'lim – barqaror rivojlanishning asosi hisoblanadi. O'quvchi va talabalarda ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirish orqali jamiyat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan faoliyatni kuchaytiradi. Shu bois, ta'lim

jarayonining barcha bosqichlarida ekologik komponentlarni keng qo'llash, ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va yoshlarni ekologik masalalarga faol jalb qilish dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brundtland, G.H. (1987). Our Common Future. World Commission on Environment and Development.

2. UNESCO (2020). Education for Sustainable Development: A Roadmap.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

4. Xasanov B. Ekologik ta'lim asoslari. Toshkent, 2021.

5. UN SDGs – United Nations Sustainable Development Goals (<https://sdgs.un.org>).